
MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANMOQCHIMISIZ?



Maktabdan tashqari ta'lim faoliyati bilan shug'ullanmoqchimisiz?

Unda siz "Litsenziya" axborot tizimi orqali "Maktabdan tashqari ta'lim faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnomani" vakolatli organga yuborishingiz zarur!

Ushbu xabarnoma orqali nodavlat maktabdan tashqari ta'lim, shu jumladan, chet tillarini o'rgatish faoliyati bilan shug'ullanishingiz mumkin.

Murojaatlar qabul qilinadi:

- "Litsenziya" AT - license.gov.uz (<https://license.gov.uz/>);

- YaIDXP - my.gov.uz orqali;

Xizmatdan foydalanuvchilar: Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor

Davlat xizmatini ko'rsatuvchi subekt:

—Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

To'lanadigan yig'im miqdori: 150 000 so'm (BHMning 50 foizi)

Muhim ma'lumot: Chet tillarga o'qitgan hollarda, pedagog kadrlarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan bilimlar darajasi va chet tilini bilish va egallab olganlik darajasi to'g'risida davlat namunasidagi malaka sertifikatini yoki yetakchi xalqaro va baholash tizimlarining amaldagi sertifikatini (IELTS, CEFR, TOEFL IBT) mavjud bo'lishi lozim.

Abdumanof Umridinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-27 09:18:56